# Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish boʻlimi



**Boʻlim boshligʻi**

**Sarimsaqov Maqsudxon Moʻsinovich**

**Tel:** 71 237 19 61

---

**Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish boʻlimini tashkil etish:**

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 maydagi “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” gi PQ-3698-sonli qarorining 1 va 3 bandlari ijrosini hamda Oʻzbekiston respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʻlim vazirining 2018 yil 5 iyuldagi 594-sonli buyrugʻi ijrosini taʻminlash maqsadida institut rektorining 2018 yil 3 avgustdagi 600 A/F-sonli buyrugʻi bilan ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish boʻlimi hamda 601 A/F-sonli buyrugʻi bilan Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish boʻyicha boʻlim Nizomi tasdiqlangan.

**Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish boʻlimining maqsadi, vazifalari:**

- ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilishini tashkil etish va muvofiqlashtish;

-innovatsion jamgʻarma mablagʻlari hisobidan moliyalashtiriladigan ilmiy tadqiqot va innovatsion loyihalar tanlovini tashkillashtirish;

- ilmiy laboratoriyalarni moddiy-texnik taʻminlash (ilmiy-laboratoriya uskunalari, harajat materiallari va komplektlarni sotib olish);

- institutning innovatsion faoliyati doirasida yaratilgan, mualliflik huquqi (patent) asosida xorijda ham rasmiylashtiriladigan mahsulot va xizmatlar, shu jumladan intellectual mulk obʻektlari roʻyxatini ishlab chiqish;

- innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun ilmiy tadqiqot va eksperimintlar oʻtkazish, maxsus uskunalarda ishlash metodikasini oʻzlashtirish uchun nufuzli ilmiy va ishlab chiqarish tashkilotlarida, shu jumladan xorijda qisqa muddatli (1 oygacha) ilmiy stajirovkalarni oʻtkazishda tadqiqotchi va talabalarni tanlab olish;

- innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalar, granular va hayriya mablagʻlarini tijoratlashtirishdan tushadigan mablagʻlarni jalb qilish;

- bank depozitiga innovatsion fond mablagʻlarini oʻtkazish yoʻli bilan ularni boshqarish;

jamgʻarma mablagʻlaridan maqsadli foydalanish uchun tizimli monitoring olib boorish.

- institut olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalarni sohaning iqtisodiy tarmoqlarga joriy qilish va tijoratlashtirishni tashkil etish;

- byudjetdan tashqari grantlar va xo‘jalik shartnomalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishini ta’minlash;

- tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan ilmiy-texnik mahsulotlarni buyurtmachilarga (iste’molchilarga) sotish;